

**Peshku tumani Axborot-kutubxona markazi
Axborot-bibliografiya xizmati**

Adabiyotga oshno qalb



**(O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi,
adabiyotshunos, tanqidchi, dramaturg Izzat Sulton
(1910-2001) tavalludining 115 yilligiga**

Kitobxonga esdalik

Peshku-2025



Hurmatli kitobxonlar! O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, adabiyotshunos, tanqidchi, dramaturg Izzat Sulton tavalludining 115 yilligi munosabati bilan Peshku tuman Axborot-kutubxona markazining axborot-bibliografiy xizmati mutaxassislari tomonidan kitobxonga esdalik tuzildi.

Kitobxonga esdalik keng kitobxonlar ommasiga bag'ishlangan.

Izzat Sultonning hayotiga bir nazar

Taniqli adabiyotshunos va istedadli dramaturg Izzat Sulton Otaxonovich 1910 yil 16(29) noyabrda Qirg'izistonning O'sh shahrida hunarmand oilasida tug'ilgan. O'sh shahridagi rus-tuzem maktabida o'qigan, u yerda uning Sultonlardan bo'lgan tog'asi Baltixo'ja Sultonovich dars bergan. Otasi vafotidan keyin Izzat Sulton bolalar uyida tarbiyalanadi.

U 1924 yil 14 yoshida Toshkentga keladi va "Namuna" ishchi-yoshlar maktabida, so'ngra ta'lim-tarbiya texnikumida tahsil olagan. 1929 yil ta'lim-tarbiya o'quv yurtini tamomlagach, maktablarda o'qituvchilik qiladi.

1930 yilda Toshkent pedagogika institutining ijtimoiy fanlar fakultetida o'qiydi. 1931-yil o'qishi davomida "Batrak" gazetasi muharririyatida mas'ul kotib bo'lib ishlagan. 1932 yil "Qizil O'zbekiston" gazetasida uning ilk adabiy-tanqidiy maqolasi bosmadan chiqqan. 1934 yilda institutni tamomlab til va adabiyot instituti aspiranturasiga kirib, uni 1937 yilda tamomlaydi hamda Izzat Sultonning faol ijtimoiy hayoti boshlanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Izzat Sulton bilan qilingan muloqot olim va dramaturg faoliyati naqadar keng qirrali ekanini isbotlaydi. 2007 yilda esa suhbatdosh: filologiya fanlari doktori O'tkir Shokirov ushbu muloqotni "Teatr" jurnalining 3-4-sonlarida "Qaqnus qo'shig'i" nomi ostida e'lon qiladi. Maqolada Izzat Sulton o'zining bolalik yillarini shunday eslaydi: "Men bir yetim bola edim. Otam vaqtli o'lib ketgan. Biz beshta yetim bolalarni onam novvoylik qilib boqardi. Maorif xodimlari bizni yetimxonalarga topshirishni so'rashganda, onam ruxsat bermagan. "Bu bolasini boqa olmay qolipti-da", degan gap bo'lib, uyat hisoblanar edi. Bundan tashqari, yetimxonaga borganda cho'qintirar ekan, cho'chqa go'shti berar ekan, degan mish-mishlar ham yurar edi. Bir kuni ko'chada yurganimda, bir odam: "Sen Otaxonning bolasimisan?", - dedi. Men "ha", dedim. "Yur men seni bir joyga olib boraman", - dedi. Meni shahar hokimining uyiga olib bordi. Bu uyda yetimxona joylashgan ekan. Qarasam, hammayoq oppoq, chiroyli uylar, oppoq kiyimlar, devorlarda rasmlar. Musulmon muallimlar. Cho'chqa go'shtini yeyishni hech kim talab qilayotgani yo'q. Kechgacha o'sha yerda bo'lib, "Men uyga ketaman. Oyim xavotir oladi", - dedim. O'sha odam: "Oyingga men aytaman, ertaga o'zini olib kelaman", - dedi. Ertasiga oyimni olib keldi. Oyim ham bir kun shu yerda bo'lib, meni tashlab ketdi. O'sha davrda yetimxonadagi bolalarni "hukumat bolasi" deyishardi. Shunday qilib, men "hukumat bolasiman", o'sha davrda tarbiyalangan odamman..."

Mehnat faoliyati

1939 yilda "Adabiyot nazariyasi" maktab darsligini yaratadi. 1940 yilda ilk asari "Burgutning parvozi" dramasi yozgan.

1940 yilda Izzat Sulton, Uyg'un bilan hamkorlikda yozgan "Alisher Navoiy" asari O'zbek dramaturgiyasining yutuqlaridan biri bo'lgan.

1960 yil "Imon", 1963 yili "Noma'lum kishi" dramalarida axloq normalari, zamonamiz kishilarining fazilatlarini ulug'langan. "Dahoning yoshligi", "Senga intilaman" kinosenariylar, "Shoir qalbi" librettosi muallifi. "Bilmayin bosdim tikanni", "Istehkom", Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asarlari uning ijodida muhim ro'l o'ynaydi.

1966 yilda "Fidoiy" asarida yozuvchi yangi dunyo va xurofot olami o'rtasidagi kurashni, yangilikning bu kurashda qudratli ekanini ko'rsatgan.

Izzat Sulton 1947 yilda filologiya fanlari nomzodi, 1954 yilda filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olgan. Ustozi Fitrat ta'sirida adabiyot nazariyasi bo'yicha mutaxassis bo'ladi. A. Sa'diy va Fitratdan keyin 1969 yil Izzat Sulton ilmiy ijodining cho'qqisi sanaladi.

1979-1985 yillarda "Navoiyning qalb daftari" Bu asar rus tilida, A. Zirin tarjimasida chop etilgan. Olimning mumtoz falsafa va adabiyot sohasidagi bilimdonligi "Bahovuddin Naqshband abadiyati" (1994) monografiyasida yaqqol ko'rinadi.

Tadqiqodchining ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning merosini o'rganishga bag'ishlangan qator asarlari alohida ahamiyatga ega. Izzat Sulton badiiy adabiyot sohasida ham barakali ijod qilgan. Navoiy hayoti va ijodi bilan olim sifatida shug'ullana boshlagan Izzat Sulton buyuk shoirning ruhiga kirib yashadi. XV asrda Hirotda ro'y bergan voqealarni Navoiyning ko'zi bilan ko'rish va uning qalbi bilan his qilishga uringan.

Izzat Sulton o'zbek adabiyotiga hissa qo'shgan kuchli qalam sohibi va ko'pgina asarlari bilan adabiyot ixlosmandlarini mamnun qilgan adabiyotshunos, tanqidchi, dramaturglardan biri hisoblanadi.

U o'zbek tilidagi "Adabiyot nazariyasi" darsligining birinchi muallifi hamdir. O'zbekiston Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi Davlat mukofoti laureati. 1939 yilda nashr etilgan "Adabiyot nazariyasi" darsligi uzoq yillar mobaynida nafaqat O'zbekistonda, balki O'rta Osiyodagi boshqa respublikalarda ham fanning shu sohasi bo'yicha birdan-bir o'quv qo'llanmasi bo'lgan. Izzat Sulton ijodida dramaturgiya asosiy o'rin egallagan. Izzat Sulton dramalaridagi badiiy vositalar oddiy va samimiy, darrov ko'zga tashlanavermaydi. Ular ma'naviy-intellektual tayyorgarligi bor kitobxon va tomoshabinga, tadqiqotchiga seziladi.

Buning boisi bitta. U ham bo'lsa, mazkur ijod tarixining ildizlari hayot chashmalaridan suv ichgan, voqelik bag'riga yashiringan. Izzat Sultonovni ilhomlantirgan, ko'ngliga yashiringan u yoki bu niyatning badiiy g'oyaga aylanishiga turki bergan dalillar, holatlar, voqea-hodisalar ana shu buloqlardan bahra olgan. Adibni asar yozishga da'vat etgan dalil-ma'lumotlar, voqea-hodisalar dramalarga ko'chib o'tgach, oddiylicha qolmaydi, ular jonlanadi. Muayyan obrazlar, g'oyaviy yo'nalishlar, tafsilotlar og'ushida san'atdagi yangilangan badiiy hayotini boshlaydi.

Akademik Izzat Sulton ijodida "Alisher Navoiy", "Imon", "Noma'lum kishi", "Ko'rmayin bosdim tikanni", "Donishmandning yoshligi", "Qaqnus", "Yangi odamlar", "Oydin kecha asirligida", "Istehkom" singari dramalar, "Navoiyning qalb daftari" "Adabiyot nazariyasi", "Drama - adabiy tur sifatida" kabi fundamental tadqiqotlar, "Buyuk Alisher", "Shoir qalbi", "Fidoiy" nomli juda ko'p kino asarlari, besh yuzga yaqin ilmiy-nazariy maqolalari, o'zbek adabiyoti tarixi va nazariyasiga oid o'ndan ziyod monografiyalari, tadqiqotlari muhim o'rin egallaydi. Ular Izzat Sulton nomini Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Zulfiya, Asqad Muxtor singari ko'rkam va fayzli silsila qatoriga qo'shadi.

Izzat Sulton hech qachon ilmiy va ijodiy faoliyatga befarq bo'lmagan.

- 1937-1942 yillar - til va adabiyot instituti direktor o'rinbosari
- 1942-1943 yillar - O'zbek radiouzatuv bo'yicha Davlat qo'mitasi rais o'rinbosari
- 1943-1945 yillar - Toshkent kinostudiyasi direktori
- 1945-1948 yillar - O'zbek Vazirlar Kengashining madaniyat ishlari bo'yicha rais o'rinbosari
- 1948-1950 yillar - O'zbekiston FA A.S.Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti direktori
- 1955 yildan - Adabiyot nazariyasi bo'limi mudiri
- 1950-1953 yillar - M.Lamonosov nomidagi MDUning xalqlari adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi
- 1956-1963 yillar - O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi kotibi
- 1946 yildan - Filologiya fanlari nomzodi
- 1955 yil - Filologiya fanlari doktori
- 1964 yil - O'zbekda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi
- 1966 yil - O'zbekiston fanlar Akademiyasi muxbir a'zosi
- 1995yil - O'zbekiston fanlar Akademiyasi haqiqiy a'zosi, akademik


Izzat Sulton haqida so'z

Izzat Sultonning "Navoiyning qalb daftari", - asari adabiyotshunoslar tomonidan ham, Navoiy ijodi muxlislari tomonidan ham samimiy qarshi olindi. Unga matbuotda birinchi bo'lib munosabat bildirgan ulkan Navoiyshunos olim Abduqodir Hayitmetov "Sharq yulduzi" jurnalining 1971 yildagi 5 sonida bunday deb yozgan edi: "Izzat Sulton Navoiy hayotini yangicha nuqtai nazardan, aniqrog'i, shoirning o'z asarlaridagi mavjud iqrorlari asosida, ularni zamondoshlari talqiniga taqqoslagan holda o'rganishga harakat qilgan. Bu, albatta, asarning fazilatidir. Shu vaqtga qadar hech bir tadqiqotchi ulug' shoir biografiasini yoritishda uning o'z so'zlari, she'riy iqrorlariga bunchalik katta ahamiyat bermagan edi".

"Atoqli adabiyotshunos olim va dramaturg Izzat Sultonning ilmiy va ijodiy faoliyati markazida Alisher Navoiy mavzui turgan edi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buyuk o'zbek shoiriga bag'ishlangan, o'zbek kino va teatr san'atlarining durdonalari hisoblangan asarlarning maydonga kelishida uning ham hissasi oz emas. U olim sifatida Alisher Navoiyning boy merosi bilan qiziqib, "Mezon ul-avzon" to'g'risida tadqiqot ishlarini olib bordi va bu asarni nashrga tayyorladi. Bundan tashqari, Izzat Sulton akademik Vohid Zohidov bilan birga Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida o'tkazilib kelgan an'anaviy Navoiyxonlik anjumanihariga fanbarlik qimo, ulug' shoir ijodiga bag'ishlangan

Akademik Izzat Sultonning kitoblari

1. Sultonov, Izzat
Alisher Navoiy: / I. Sultonov [O'zbek sovet dramaturgiyasi to'plamida] / Moskva: 1951 yil.
2. Sultonov, Izzat
Rossiya nuri: / I. Sultonov // Sarq yulduzi.– № 9.– 1959 y.
3. Sultonov, Izzat
Sahna asarlar: [maqolalar] / I. Sultonov.– Toshkent: 1959 y.
4. Sultonov, Izzat
Hamza Hakimzoda Niyoziyning o'zbek adabiyotida realizm uslubini shakllantirishdagi ijodkorlik ahamiyati haqida: [to'plamda o'zbek adabiyoti masalalari] / I. Sultonov.–Toshkent: 1967 y.
5. Sultonov, Izzat
Navoiyning qalb daftari: / I. Sultonov.– Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1969 y.
6. Sultonov, Izzat
Asarlar: 4 boblik / I. Sultonov.– Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971-1974 y.
7. Sultonov, Izzat
Navoiyning qalb daftari: Buyuk shoirning hayoti va ijodi o'zining so'zlari orqali; she'rlarini S.Ivanov tarjima qilgan. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.–327 b.
8. Sultonov, Izzat
Adabiyot nazariyasi: / I. Sultonov.– Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1980 y.
9. Sultonov, Izzat
Adabiyot nazariyasi: 2-nashri [OTMlarnig filologiya fakul'teti uchun darsligi] / I. Sultonov.– Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1986 y.
10. Sultonov, Izzat
Navoiyning qalb daftari: qayta nashr / I. Sultonov.– Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985.–304 b.
11. Izzat Sulton
Bahovuddin Naqshband abadiyati: / I. Sultonov.– Toshkent: Fan nashriyoti, 1994.–87 b.



Xulosa qilib shuni aytib o‘tish joizki Izzat Sulton ustoz Oybekdek umrning har bir lahzasini mazmunli utkazishga odatlangan alloma butun hayoti davomida tinimsiz qalam tebratib, badiiy ijod va adabiyotshunoslik ilmining turli janrlarida ko‘plab asarlar yaratdi. Afsuski, bu asarlarning muayyan qismi, turli sabablarga ko‘ra, olim hayot chogida e‘lon qilinmay yoki tugallanmay qolgan. Shunday asarlardan biri “Jahon adabiyoti” jurnalining ushbu sonida ilk bor mushtariylar e‘tiboriga havola etilayotgan “Muqaddima” romanidir.

Tabiat Izzat Sultonni ham o‘tkir intellektual-analitik, ham badiiy tafakkur sohibi etib yaratgan. Shu sababli u adabiyotshunoslik ilmi bilangina shug‘ullanib qolmay, badiiy ijod maydonlarida ham javlon urishga intilgan.

Izzat Sulton qalbidagi hayrat, his-hayajon va bedor tuyg‘ularning doim kamalak ranglari bilan tovlanib, to‘lqinlanib turishi o‘sha fazilatning — ijodga bo‘lgan ishtiyoqning hatto keksalik faslida ham xira tortmasligiga sabab bo‘lgan. Aksincha, yoshi ulg‘aygani, aql-zakovati va bilimi tobora boyigani sayin unda badiiy ijod marralarini zabt etish istagi kuchayib borgan. Izzat Sultonning umr shomida ketma-ket bir necha p‘esa va romanlarni shoshib qoralagani, birini tugatmay turib, ikkinchisini, ikkinchisini tugatmay turib, uchinchisini boshlaganining sabablaridan biri ham xuddi shunda.

Asarlarida ona yurtga bo‘lgan chuqur muhabbat, uning tabiatiga, tarixi va madaniyatiga nisbatan hurmat tuyg‘usi kuchli ifodalangan.

Izzat Sulton 2001 yil 29 iyulda vafot etgan, Toshkent shahrining Chig‘atoy qabristoniga dafn qilingan.

Axborot-bibliografiya xizmati